

ETNOPEDAGOGIK QADRIYATLARNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI**Pazilov Arzi Kenjebaevich** – pedagogika fanlari nomzodi, professorpazilovarzi@gmail.com*Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti***ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ ЭТНОПЕДАГОГИЧЕСКИХ ЦЕННОСТЕЙ****Пазылов Арзы Кенжебаевич** – кандидат педагогических наук, профессор*Нукусский государственный педагогический институт имени Ажинияза***STAGES OF DEVELOPMENT OF ETHNOPEDAGOGICAL VALUES****Pazilov Arzi Kenjebaevich** – Candidate of Pedagogical Sciences, Professor*Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyaz*

Tayanch soʻzlar: etnopedagogika, etnopedagogik bilim, etnopedagogikaning taraqqiyot bosqichlari, xalqning milliy maʼnaviyati, xalqning milliy madaniyati, milliy tarbiya tizimi, etnopedagogik qadriyatlar, madaniy-etnik qadriyatlar.

Rezyume. Maqolada ilmiy manbalarga asoslangan holda etnopedagogik qadriyatlarning rivojlanish bosqichlari davrlashtirilib koʻrsatiladi. Chuningdek, har bir bosqichdagi etnopedagogikaga oid tadqiqotlarning oʻziga xos yunalishlariga ham eʼtibor qaratiladi.

Ключевые слова: этнопедагогика, этнопедагогическое знание, этапы развития этнопедагогики, национальная духовность народа, национальная культура народа, система национального воспитания, этнопедагогические ценности, культурно-этнические ценности.

Резюме. В статье основываясь на научных источниках, периодизированы этапы развития этнопедагогических ценностей. Также уделяется внимание специфическим направлениям этнопедагогических исследований на каждом этапе.

Key words: etnopedagogy, ethnopedagogical knowledge, stages of development of etnopedagogy, national spirituality of the people, national culture of the people, system of national education, ethnopedagogical values, cultural and ethnic values.

Summary. The article, based on scientific sources, periodizes the stages of development of ethnopedagogical values. Attention is also paid to the specific directions of ethnopedagogical research at each stage.

Kirish. Etnopedagogika va etnopedagogik bilimlarning paydo boʻlishi, jamiyat aʼzolarining ongli hayot kechirish, atrof muhitga qadriyatli munosabatda boʻlishga oid faoliyati bilan bogʻliq. Etnopedagogikaning taraqqiyot bosqichlari va ularning davrlashtirilishi etnopedagogika tarixi nuqtai nazaridan, uning oʻziga xos xususiyatlari, pedagogik yondashuvlarning integratsiyasi va tabaqalashuviga koʻra oʻrganiladi. Bugungi kunga kelib etnopedagogikaga oid tadqiqotlarga nisbatan qiziqish tobora ortib bormoqda. Etnopedagogik tadqiqotlar pedagogik bilimlarni bilish va oʻzlashtirishlarning oʻziga xos shakli hisoblanadi. Mazkur tadqiqotlar doirasida milliy, tarbiyaviy-maʼrifiy anʼanalarni maqsadli va tizimli oʻrganish imkoni beriladi. Mazkur tadqiqotlarda etnopedagogikaning vositalari, usullari va metodlaridan keng koʻlamda foydalaniladi. Bunday tadqiqotlar oʻz ichiga xalq yoki millatning asrlar davomida shakllantirilib takomillashtirilib borilgan etnopedagogik bilimlar majmuini qamrab oladi.

Adabiyotlar tahlili. Etnopedagogikaning nazariy-amaliy asoslari va mazmunini qamrab olgan ilmiy manbalarda etnopedagogikaning vujudga kelish, uning rivojlanish davrlari, shakllanish bosqichlariga alohida eʼtibor qaratilgan. Mazkur ilmiy manbalarda bayon etilishicha etnopedagogik tadqiqotlarni davrlashtirish XXI asrning boshlarida boshlangan. Dastlab etnopedagogikaga oid tadqiqotni I.A.Churikov amalga oshirgan. Muallif oʻzining etnopedagogikaga oid qarashlarini mariy etnopedagogikasi misolida bayon qilgan. Muallifning taʼbiriga koʻra tarix, etnografiya, pedagogika hamda psixologiya yoʻnalishidagi manbalarda etnopedagogika oʻz ifodasini topgan. Etnopedagogik tadqiqotlarning vujudga kelish davrlari va ularning mazmun mohiyatini anglash

yangi tadqiqotlarni amalga oshirilishiga asos boʻladi. Etnopedagogik tadqiqotlarning dastlabki bosqichida (XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlari) unga berilgan tavsif milliy tarbiya kontseptsionalari, har bir xalq uchun muqaddas boʻlgan qadriyatlar, yaʼni eʼtiqod, vatanparvarlik, oilaviy va milliy anʼanalarga asoslangan tarbiya masalalariga alohida eʼtibor qaratilgan [15].

Etnopedagogikaga xos boʻlgan xalqchilik, milliy tarbiya tizimining shakllanishiga asos boʻladi. Millatimizning koʻplab ilgʻor fikrli vakillari tomonidan xalqimizni maʼrifatli qilish, milliy tarbiya gʻoyalarini keng targʻib etish, yosh avlodni xalqimiz madaniyatiga yaqinlashtirishga alohida eʼtibor qaratilgan.

Etnopedagogik tadqiqotlarning ikkinchi davri oʻtgan XX asrning 20-60-yillariga mansub. Oʻtgan XX asrning 1930-yillarida etnopedagogikaning rivojlanishiga maʼlum darajada mashhur etnograf va pedagog G.S.Vinogradov muhim hissa qoʻshgan. U oʻz tadqiqotlarida xalqning anʼanaviy pedagogik madaniyati katta tarbiyaviy imkoniyatlarga egaligini asoslab bergan, xalq pedagogikasining tarbiyaviy imkoniyatlarini koʻrsatgan, ushbu yoʻnalishni pedagogikaning alohida tarmogʻi sifatida ajratish zarurligini asoslashga harakat qilgan. Ushbu fikrlar etnopedagogikaning pedagogika fanining muhim tarmogʻi sifatida vujudga kelishiga asos boʻldi [8:12].

Sobiq Sovet hokimiyati yillarida etnopedagogikaga oid tadqiqotlarga etarlicha eʼtibor qaratilmadi. Bu sohada ayrim ishlar esa mafkuraviy boʻyoqqa ega boʻldi. Etnopedagogikaga oid tadqiqotlar xarakterida obʼektivlik taʼminlanmadi. Etnopedagogikaga oid tadqiqotlarning ikkinchi davrida mutaxassislar etnopedagogik qadriyatlar va ularning tarbiyaviy ahamiyatiga alohida eʼtibor qaratish boshladilar. Etnopedagogik qadriyatlarining ikkinchi

bosqichi pedagogika fanining mazkur tarmog'i uchun samarali bo'lganligini amalga oshirilgan izlanishlar yaqqol ko'rsatdi.

Etnopedagogikaga oid tadqiqotlarning uchinchi davrida ham jiddiy izlanishlar amalga oshirilgan. Mazkur davrning boshlanishini va rivojlanishi bevosita taniqli pedagog G.N.Volkovning nomi bilan bog'liq [3]. Uchinchi bosqichda mutaxassislar etnopedagogikaga oid ma'lumotlarga alohida qiziqish bilan yondasha boshladilar. Chunki etnopedagogika har bir xalqning milliy ma'naviyati va madaniyatini rivojlantirishda alohida ahamiyat kasb etishini mavjud tajribalar yaqqol ko'rsatdi. Xalq o'zining o'tmishi, madaniyati, ma'naviy boyliklarini o'zlashtirish uchun bevosita etnopedagogik qadriyatlarga murojaat qiladi. Bu davrda O'zbekistonda xalq pedagogikasiga oid ko'plab asarlar [7,11,13,14] e'lon qilindi. SHuningdek, O'rta Osiyo va Qozog'iston, Turkmaniston, Tojikiston, Qirg'iziston, Rossiya xalqlari an'alarini o'rganishga bag'ishlangan etnopedagogik tadqiqotlarning ko'lami kengaydi [1-9, 11, 13].

Muhokama va natijalar. O'zbekistonda etnopedagogikaning rivojlanish jarayonini tahlil qilish natijalari shuni ko'rsatdiki, uning uzoq o'tmishda birgalikda hayot kechirgan turli millat vakillariga nisbatan tolerant xarakter kasb etganligi dostonlar, ertaklar mazmunida o'z ifodasini topganligini ko'rish mumkin. Etnopedagogik tadqiqotlar turli xalqlarga xos bo'lgan etnopedagogik vositalar mazmunini chuqur o'rganish imkonini beradi. Etnopedagogikaga oid asarlarni tahlil qilish ushbu yo'nalishdagi etnopedagogik vositalarni mazmunini anglash, turli xalqlarning urf-odatlarini va qadriyatlarini o'rganish, turli millat vakillariga nisbatan qadriyatli tolerant munosabatda bo'lish tajribasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Etnopedagogikaning mazmun mohiyati, uning tadqiqot yo'nalishlarini tushunish, uning pedagogika fanining muhim yo'nalishi sifatida bayon etilishi, ushbu yo'nalishdagi izlanishlar ko'lamin kengaytirishga asos yaratadi. O'zbekistonda etnopedagogik qadriyatlar va vositalarni o'rganishga falsafiy, adabiyotshunoslik, tarix, arxeologiya, madaniyatshunoslik, pedagogik nuqtai nazardan yondashilgan. I.Muminov, M.Xayrullaev, A.Zunnunov, K.Hoshimov, M.Abdullaev, A.Sohibov kabilarning ishlarida etnopedagogik muammolar va etnopedagogik qadriyatlarning tarbiyaviy ahamiyatlari yoritilgan. SHu bilan bir qatorda xalq dostonlari, ertaklar, xalq qo'shiqlari va maqol kabi etnopedagogik vositalarda ifodalangan tarbiyaviy muammolar mutaxassislar tomonidan tadqiq etilgan.

Ko'plab xalqlar pedagogikasida etnopedagogik qadriyatlarni tadqiq etish o'zining bir qator bosqichlariga ega bo'lgan. Mazkur bosqichlar sifatida empirik tadqiqotlar bosqichi, etnodiniy tadqiqotlar bosqichi, ilmiy-amaliy tadqiqotlar bosqichi, nazariy tadqiqotlar bosqichi hamda nazariy-metodologik tadqiqotlar bosqichini ko'rsatib o'tish mumkin.

Etnopedagogikaga oid empirik tadqiqotlar bosqichi etnopedagogik ma'lumotlarni bevosita hayotiy tajriba, xalq og'zaki ijodi, urf-odatlar, milliy tarbiya elementlarini to'plash va ilmiy tahlil etish jarayonini o'z ichiga oladi. Mazkur bosqichda milliy tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan marosimlarning o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilinadi, ularda ishtirok etish, xalq ijodiy manbalarini

yig'ish (maqol, afsona, qo'shiq, marosim), etnopedagogik qadriyatlar va turmush amaliyotini solishtirishga oid etnopedagogik faoliyat amalga oshiriladi.

O'zbek etnopedagogikasida empirik tadqiqotlar o'tgan XX asrning 1950-1980-yillari mobaynida xalq og'zaki ijodi namunalarini to'plash, 1980-1991-yillarda xalq pedagogikasini ta'lim tarbiyaviy jarayonlarga tatbiq etish, 1991-2010-yillarda milliy qadriyatlar asosida tarbiya kontseptsiyasini ishlab chiqish, 2010-yildan bugungi kunga qadar etnomadaniy, madaniyatlararo muloqot kompetentsiyalarini o'quvchi va talabalarda shakllantirish yo'nalishida izlanishlar amalga oshirilmoqda. O'zbek etnopedagogikasidagi empirik bosqichning o'ziga xos jihatlari O'zbekistonda yashovchi 130 dan ortiq millat va elatlarning madaniyati, ularning o'zbek xalqi madaniyati bilan mushtarak jihatlari, bir biriga ta'siri, bir birini boyitish imkoniyatlarini o'rganishga yo'naltirilganligi bilan xarakterlidir. Ushbu tadqiqotlar ilmiy tahlil bilan bir qatorda etnopedagogik qadriyatlardan ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish mexnizmini taklif qilganligi bilan alohida ahamiyatga ega.

Etnopedagogik qadriyatlarni o'quvchi va talabalarga taqdim etishning empirik bosqichida qo'llaniladigan tadqiqot metodlari o'zida O'zbekistonda yashovchi xalqlarning milliy xususiyatlarini mujassamlashtirgan. Ular sirasiga etnografik tadqiqotlar, etnografik interv'yular, marosimlarni kuzatish, foto-video protokollar, bolani oila muhitida o'rganish metodlarini kiritish mumkin.

Etnodiniy tadqiqotlar bosqichida O'zbekistonda madaniy, etnik va diniy jihatdan turli tuman millat va dinga mansub istiqomat qiladigan hudud bo'lib, unda har xil din va millatga mansub bo'lgan insonlar orasidagi qadriyatli munosabatlarni tarkib toptirishga ustuvor e'tibor qaratiladi. Ma'lumki, din va millat orasidagi aloqalar jamiyat a'zolarining o'ziga xosligini shakllantirishga xizmat qiladi. Har bir millat o'ziing dunyoqarashi, e'tiqodi, urf-odat an'analari va marosimlariga ega bo'lib, ular ayni millat vakilining o'ziga xosligini tarbiyalashga asos bo'ladi.

Mustaqillik yillarida diniy qadriyatlarning tarbiyaviy ahamiyati, milliy o'zlikni anglashda tutgan o'rniga ham alohida e'tibor qaratila boshlandi. SHunga ko'ra etnodiniy tadqiqotlar etnos, din, identichlik, jamiyat kabi murakkab muammolar orasidagi aloqadorlikni o'rganishga qaratildi. O'zbekiston va Markaziy Osiyo xalqlarining etnopedagogik qadriyatlari mazkur hududda yashovchi turli millat vakillarining urf-odatlarini, an'analari, marosimlari, xalq og'zaki ijodi namunalari, liboslari, san'ati va madaniyatida o'z ifodasini topgan. Bunda madaniyatning din bilan uzviy aloqaligi ham diqqat-e'tiborda bo'lgan. O'zbekistonda etnodiniy tadqiqotlar tarix, etnografiya, madaniyatshunoslik bilan bir qatorda etnopedagogika sohasida ham o'rganilgan. Chunki O'zbekistonda yashovchi xalqlarning qadriyatlari, madaniyati bevosita diniy qarashlar bilan bog'liq. Ayniqsa, o'zbek xalqining madaniyati, axloqiy tarbiyasi islomiy qadriyatlar bilan uyg'un tarzda yashab kelmoqda. O'zbek xalqi uchun mazkur tadqiqotlar milliy o'ziga xoslik, diniy marosim va an'alar negizida shaxsni tarbiyalashga yordam beradi.

Etnopedagogikada ilmiy-amaliy tadqiqotlar bosqichi xalq pedagogikasi boyliklarini faqat o'rganish, yozib olish va taxlil qilish emas, balki ta'lim tizimiga tatbiq etish, ushbu yo'nalishda metodik qo'llanmalar, tavsiyalar ishlab chiqish, ularni umumiy o'rta ta'lim va oliy ta'lim

muassasalarida sinovdan o'tkazish, o'quvchi va talabalarni ma'naviy axloqiy jihatdan rivojlantirishga xizmat qiladigan kompleks yondashuvga asoslangan dasturlar ishlab chiqish, milliy tarbiya texnologiyalarini pedagogik jarayonga integratsiya qilish kabi amaliy natijadorlikka asoslangan tadqiqotlarni amalga oshirishni nazarda tutadi. Ushbu bosqichda nazariya bilan bir qatorda amaliyot uchun ham pedagogik vositalar yaratiladi. Mazkur bosqichdagi tadqiqotlarning o'ziga xos jihati milliy-hududiy an'analar, milliy ma'naviy tarbiyaga oid etnopedagogik meros, xalq o'yinlarining shaxs kamolotida tutgan o'rni, ertaklar, maqollar, aytishuvlar, sanamalar orqali yosh avlodni tafakkuri va nutqini rivojlantirish imkoniyatlarini o'zida mujassamlashtiradi.

Etnopedagogikada nazariy tadqiqotlar bosqichida xalq pedagogikasiga oid materiallar to'planadi, nazariy jihatdan asoslanadi, ilmiy tushuncha, qonun, kategoriya, tamoyillar aniqlanadi. Etnopedagogika fan sifatida shakllantiriladi, oliy pedagogik ta'lim jarayoniga tatbiq etiladi. Uning obyekti, predmeti, vazifasi aniqlanadi, asosiy tushunchalar, kategoriya, atamalar shakllantiriladi va tizimli bayon qilinadi. Tarbiyaning milliy asoslari, pedagogika bilan boshqa fanlar orasidagi aloqadorlik asoslanadi. Mazkur bosqichning asosiy maqsadi etnopedagogik bilimlarni tasviriy holatdan nazariy-asosli fanga aylantirishdan iborat.

Etnopedagogikada nazariy-metodologik tadqiqotlar bosqichi muhim ahamiyatga ega. Bu bosqichda etnopedagogik nazariyalar, bu nazariyalarni tadqiq etish metodlari, ilmiy yondashuvlar, ularning o'rganilishi,

metodologik jihatdan asoslanishi tadqiq etiladi. Mazkur bosqichning vazifasi etnopedagogik tadqiqotlarni amalga oshirish qoidalarini, metodlarini, yondashuvlarini ilmiy nuqtai nazardan asoslashdan iborat. Yuqoridagi tadqiqotlarda etnopedagogikaga oid qonun qoidalarini tushunish uchun ularning qanday vujudga kelganligi, rivojlanish bosqichlarini o'rganish tavsiya qilinadi. Bosqichlar orasidagi chegaralanish shartlilik xarakteriga ega. Keyingi bosqich oldingisini mantiqiy jihatdan davom ettiradi, ular orasida ilmiy ierarxiya mavjud bo'lib yangi sifat bosqichiga ko'tarilishini anglatadi. Shunga ko'ra har bir bosqich etnopedagogikaning tadqiqot obyekti sifatida namoyon bo'ladi. Har bir bosqichning umumiy tavsifi, empirik va etnodiniy bosqichlardan boshlangan holda, vaqt chegaralarini belgilash, ilmiy-nazariy bosqichda etnopedagogik tadqiqotlar mazmunini tahlil qilish, bundan keyingi nazariy va nazariy-metodologik bosqichlarning o'rganilishi, ularni anglashning zarurligini va muhim ekanligini isbotlaydi.

Xulosa. Etnopedagogik qadriyatlarining rivojlanish bosqichlari etnopedagogik fikrlar va bilimlarning vujudga kelishi bilan chambarchas bog'liq. Ular xalqning tarbiyaga oid amaliy tajribasini o'zida mujassamlashtirgan. Etnopedagogikada tarixiy-pedagogik jarayonning nazariy-metodologik asoslari turli madaniyatlar xilma-xilligi va ta'lim-tarbiya uyg'unligi kontekstida asoslanmoqda. Etnopedagogikaning taraqqiyot yo'lini yorituvchi bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Etnopedagogikaga oid nazariy-metodologik yondashuvlar, unga oid tadqiqotlarning ilmiy asosi va yo'nalishlarini ifodalaydi.

Adabiyotlar

1. Афанасьев В.Ф. Этнопедагогика нерусских народов Сибири и Дальнего Востока. – Якутск: 1979.
2. Балтабаев М.Х. Основы музыкально-эстетического воспитания учащейся молодёжи средствами казахской традиционной художественной культуры: Дис. ... доктора пед. наук. – Алматы: 1994.
3. Вольков Г.Н. Этнопедагогика. – Чебоксары: 1974.
4. Жарикбаев К.Б., Калиев С.К., Абилова З. Программа курса «Казахская этнопедагогика». – Алма-Ата: Республиканский издательский кабинет, 1993.
5. Измаилов А.Э. Народная педагогика: педагогические воззрения народов Средней Азии и Казахстана. – Москва: «Педагогика», 1991.
6. Кожаметова К.Ж. Казахская этнопедагогика: методология, теория, практика. [Текст] / К.Ж.Кожаметова. Новое изд. – Алматы: «Гылым», 1998.
7. Каракалпак этнопедагогикасы. Педагогикалық институт талабалары ушын оқыў қолланбасы. – Нөкис: «Билим», 2010.
8. Магауова А.С. Этнопедагогика в системе профессиональной подготовки специалистов. – Алматы: Казак университеті, 2020.
9. Маджидова Б. Народные традиции и обычаи как средство формирования нравственных качеств детей в семье: автореф. дис. ... д-ра пед. наук / [Таджик. гос. пед. ун-т им. К. Джураева]. – Душанбе: 2004.
10. Пирлиев К. Очерки этнопедагогики туркменского народа. (Учеб. пособие для студентов вузов и педучилищ). – Ашхабад: 1976.
11. Сафаров Н.С. Прогрессивные идеи и традиции народной педагогики Узбекистана. – Ташкент: «Фан», 1989.
12. Саипбаев С.М. Идеи воспитания подрастающего поколения в киргизской народной педагогике: Автореф. дис. ... канд. пед. наук. – Фрунзе: 1979.
13. Тажимуратов А. «Каракалпак халық педагогикасы». – Нөкис: «Билим», 1996.
14. Ўзбек педагогикаси антологияси (икки жилдли) 1-жилд. – Тошкент: «Ўқитувчи», 1995.
15. Чуриков И.А. Этнопедагогика народа мари: учебное пособие для вузов. – Москва: 2005.